

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 176 (1237), 2024-yil 31-avgust, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



EL ISHONCHI, XALQ BIRLIGI VA AHILLIGI ISLOHOTLARIMIZNING ASOSIY MAQSADI, KO‘ZLAGAN MARRALARIMIZGA ERISHISHDA HAL QILUVCHI KUCH

Prezident Shavkat Mirziyoyevning farmonlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz uch yilligi munosabati bilan turli sohalar vakillari faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlangan edi.



30-avgust kuni Ko‘ksaroyda ushbu mukofotlarni topshirish marosimi bo‘ldi.

Shavkat Mirziyoyev barchani Mustaqillik bayrami bilan, yig‘ilganlarni davlatimizning yuksak mukofotlari bilan tabrikledi. Mamlakatimizda erishilayotgan natijalarning asosi, sa‘y-harakatlarning mohiyati haqida yurakdan so‘zlandi.

— Biz nima uchun mehnat qilyapmiz? Xalqimiz tinch va farovon yashashi uchun, farzandlarimizning baxt-u kamoli uchun. Inson qadri degan harakatni boshlaganmiz. Bu harakatni, katta-katta maqsadlarimizni joylarda kim amalga oshiradi? Sizlarga o‘xshagan fidoyi, vatanparvar, kuchli insonlar! Sizlar — qahramonlar, yoshlarimizga namunasizlar. Men sizlar bilan g‘ururlanaman va xalqimiz nomidan rahmat aytaman, — dedi Prezident.

Bu sa‘y-harakatlar o‘z samarasini bermoqda. Shahar-u qishloqlar qiyofasi, barcha soha va tarmoqlar tubdan o‘zgarib bermoqda. Iqtisodiyot, qurilish, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya sohalarida keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Bularning natijasini odamlar o‘z hayotida ko‘rmoqda.

Mamlakatimiz katta taraqqiyot yo‘liga chiqib olganini dunyo ham e‘tirof etyapti. O‘zbekiston tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir nechta rezolyutsiyalari qabul qilindi. Yirik siyosiy va iqtisodiy forumlarda ilgari surilgan ko‘plab tashabbuslar xalqaro jamoatchilik tomonidan katta e‘tibor bilan qabul qilindi va qo‘llab-quvvatlandi.

Uzoq va yaqin davlatlar bilan savdo-iqtisodiy, turizm va investitsiya, madaniy-gumanitar sohalarida foydali bitimlar imzolandi.

Yurtimizda xalqaro darajadagi nufuzli anjumanlar bo‘lib o‘tdi. San‘at va madaniyat festivallari, Olimpiya o‘yinlaridagi tarixiy g‘alaba ham ulkan e‘tiroflarga sazovor bo‘ldi.

Bir so‘z bilan aytganda, bunyodkor xalq, bag‘rikeng millat sifatida jahon maydoniga chiqdik.

Davlatimiz rahbari bularning barchasi xalqimizning yutug‘i ekanini ta‘kidladi.

— Mehnatkash, fidoyi yurtdoshlarimizni men o‘zimgin eng yaqin qadrdonlarim, sadoqatli safdoshlarim deb bilaman, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Bugun Vatanimizga jonkuyar, o‘zini el-yurt taqdiriga daxldor deb biladigan insonlar yanada ko‘proq kerak. Boshqalarni, ayniqsa, yoshlarimizni ortidan ergashtira oladigan, ertangi kunga ishonitiradigan, jamiyatni birlashtiradigan odamlar kerak. Chunki el ishonchi, xalq

birligi va ahilligi ko‘zlagan marralarimizga erishishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Uchrashuvda bugun dunyodagi vaziyat, unda oqilona yo‘l topish mashaqqati haqida ham so‘z yuritildi. Shiddat bilan o‘zgarayotgan davr mamlakatlar, xalqlar, insonlar oldiga yangi-yangi masalalarni qo‘ymoqda. Butun dunyoda raqobat, ertangi kun uchun kurash ketyapti. Shunga tayyor millat, shunga tayyor xalqgina Vatani va davlatini munosib o‘ringa ko‘tara oladi.

Kelajakda global dunyoda O‘zbekistonning o‘rni qanday bo‘ladi? Biz o‘z mehnatimiz, bilimimiz, dunyoqarashimiz bilan el-yurtga qanchalik naf bera olaymiz? Bu savollar hammamizni o‘ylantirishi kerak.

Mustaqillik bizga chinakam qadr-qimmat, insoniy g‘urur tuyg‘usini berdi. Shu bilan birga, mustaqillik — bu, avvalo, mas‘uliyat degani.

O‘z taqdiri, o‘z kelajagini o‘zi belgilash, obod va ozod Vatan qurish mas‘uliyati.

Bugungi yutuqlar biz uchun chegara emas. Xalqimiz bundan-da yaxshi yashashga munosib, katta ishlarga qodir. Agar hammamiz “bir mush” bo‘lib, o‘z vazifamizni vijdonan bajarsak, islohotlarda tomoshabin emas, faol ishtirokchi bo‘lsak, ko‘zlagan maqsadlarga albatta yetamiz. Buning uchun bizda sharoit, imkoniyat, kuch-qudrat, salohiyat yetarli ekanini ta‘kidladi.

Prezident joylarda davlat mukofotlarini qabul qilib olayotgan vatandoshlarimizni ham tabrikledi.

— Mukofot aslida nima? Mukofot — bu, avvalo, inson qadri uchun ulug‘lash degani. Odamning mehnati qadr topsa, davlat va jamiyat tomonidan e‘tirof etilsa, bundan uning o‘zi, oilasi, do‘stlari, mahalla-ko‘y,

qolaversa, el-yurt ham xursand bo‘ladi. Bizning maqsadimiz ham shu: halol va samarali ishlayotgan odamlarni qadrlash, izzat-ikrom ko‘rsatish, — dedi davlat rahbari.

Shundan so‘ng mukofotlanganlarga faxriy unvon, orden va medallar tantanali ravishda topshirildi.

— Yaxshi ishlagan odam qadr topadi. Bugun halol mehnat, fidoyilik va vatanparvarlik yana bir marta qadr topayotgan kun. Bugungi yuksak unvonlar, orden va medallar sizlarni yangi zafarlarga chorlasin. Yurtimizda bunday insonlar qancha ko‘p bo‘lsa, men ham mukofotlashdan charchamayman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mukofotlanganlar yuksak e‘tibor uchun minnatdorlik bildirib, xalqimizga ezgu tilaklar bildirdi.

O‘ZA

IKKI TOMONLAMA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARINI KO‘RIB CHIQQILAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

30-avgust kuni Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqot qildi.

Subhat avvalida davlatimiz rahbari Belarus Prezidentini yubiley bilan samimiy qutlab, unga mustahkam sog‘liq va katta yutuqlar, do‘st Belarus xalqiga farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘z navbatida, Belarus Prezidenti O‘zbekiston rahbari va ko‘p millatli xalqini yaqinlashib kelayotgan Mustaqillik kuni bilan samimiy tabriklab, tinchlik, barqaror taraqqiyot va rivojlanish tiladi.

Subhat davomida joriy yilning 7-9-fevral kunlari Belarus Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasiga tashrifi chog‘ida erishilgan kelishuvlarni

qabul qilingan “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Belarus Respublikasi Milliy Majlisi Respublika Kengashi Raisi Natalya Kochanova boshchiligidagi delegatsiyaning yaqinda mamlakatimizga qilgan tashrifining samarali natijalari yuqori baholandi.

Sanoat kooperatsiyasi bo‘yicha qo‘shma loyihalarni tayyorlash va amalga oshirishni tezlashtirish, shuningdek, madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

INSONPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev eng aziz umummilliy bayramimiz — Vatanimiz mustaqilligi e‘lon qilinganining o‘ttiz uch yilligini nishonlash arafasida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan gumanistik siyosatning amaliy tasdig‘i sifatida “Jazo muddatini o‘tayatgan, qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan bir guruh shaxslarni afv etish to‘g‘risida”gi Farnomni imzoladi. Farnomga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o‘tayatgan hamda qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lgan va tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tgan 522 nafar shaxs afv etildi.

Afv etilgan shaxslarning 159 nafari asosiy jazodan ozod etildi, 303 nafari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilindi, 60 nafarining ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashirildi.

Afv etilganlarning 19 nafari chet el fuqarolari, 56 nafari in ayol, 25 nafari 60 yoshdan

oshgan erkaklar, 233 nafari yoshlar (shulardan, 1 nafari voyaga yetmagan) hamda 27 nafari taqirlangan tashkilotlar faoliyatida qatnashgan shaxslar tashkil etadi.

Farnom ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag‘riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug‘ullanishlari, sog‘lom turmush tarzini yo‘lga qo‘yib, jamiyatda munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas‘ul vazirlik va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

HAYRATDA QOLGANINGIZDAN HAM TUZALIB KETASIZ

TIBBIYOT MARKAZI KO‘PLAB NURSIZ QALBLARGA ISHONCH, UMIDBAXSH HAYOT NAFASINI OLIB KIRDI

Kecha men anchadan beri kutayotgan voqea bo‘ldi. Menimcha, buni faqat menmas, minglab odamlar kutgandi...

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Toshkent shahridagi obyektlarga tashrifi haqida hamkasblarimizning reportajlarini ko‘rgan, tarmoqlarda xabarlarini o‘qigandirsiz. Hozir shu tashrifda ko‘rganlarim va his qilganlarimni sizlar bilan bo‘lishmoqchiman.

3 yil avval...

2021-yilda davlatimiz rahbari bilan Andijondagi shifoxonalarning birida O‘zbekistonda onkologiyani tashxislash-davolash holati haqida savol-javob qilish

imkoniyati bo‘lgandi. O‘sha yili yaqin qarindoshimni Hindistonga olib borib, katta qiyinchiliklar, xarajatlar bilan murakkab operatsiyani o‘tkazib qaytgandik. Shuning uchun ham og‘riqlarim, alamlarim yangi edi. Savol berayotib, ovozim bo‘g‘ilgani-yu ko‘zimda yosh

aylanganini ko‘rgan Shavkat Mirziyoyev o‘zi ham juda kuyinib, sohaning og‘riqlarini va yechimni qanday ko‘rayotganini batafsil birma-bir sanab bergandi.

“Siz aytgandek, hammayoqqa PET KT (yadro tibbiyoti uskunasini) apparat qo‘yishimiz mumkin, lekin uni tushunadigan sifatli kadr yetmaydi, avval o‘qitishimiz kerak, men baribir ularni xorijga yuborib bo‘lsa ham o‘qitaman, poytaxtda 8 qavatli, barcha hududlar uchun ilmiy-amaliy, tibbiy xab bo‘la oladigan muassasa qurishga topshiriq berganman”, degandi davlatimiz rahbari o‘shanda.

Davomi 2-betda

Xushxabar

ASILA MIRZAYOROVA PARALIMPIYA TARIXIDAGI 28 YILLIK REKORDNI YANGILADI

Fransiya poytaxti Parijda davom etayotgan XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlari ham sportchilarimiz tomonidan o‘rnatilayotgan rekordlar hisobiga tarix zarvaraqalariga oltin harflar bilan muhrlanadigan bo‘lyapti.

PARIS 2024 PARALYMPIC GAMES





ASILA MIRZAYOROVA PARALIMPIYA TARIXIDAGI 28 YILLIK REKORDNI YANGILADI

Boshlanishi 1-betda

Xususan, para yengil atletika bo'yicha ayollar o'rtasida T11 klassida uzunlikka sakrash bahsida ishtirok etgan hamyurtimiz Asila Mirzayorova dastlabki urinishda 5,22 metr natija qayd etib, ushbu yo'nalishda Paralimpiya o'yinlari rekordini o'rnatdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu yo'nalishda avvalgi Paralimpiya rekordi 1996-yil Atlantada o'tkazilgan o'yinlarda o'rnatilgan. 28 yil avvalgi rekord ispaniyalik Ortiz Ochistkaga tegishli edi — 5,07 metr.

E'tiborlisi, sportchimiz kecha 28 yillik rekordini o'zgartiribgina qolmay, keyingi urinishlarida 5,24 metr natija qayd etgan holda bir oz avval o'zi o'rnatgan rekordni yangiladi va oltin medalga sazovor bo'ldi.

Shu tariqa u qo'sh rekord sohibasi o'laroq delegatsiyamizga ilk oltin medalni taqdim qildi.

Asila rekordi bilan bog'liq yana bir o'ziga xos ko'rsatkich shundaki, u bundan avvalgi yozgi Paralimpiya o'yinlari — "Tokio — 2020"da ushbu yo'nalishda kumush medal olib, O'zbekiston tarixida ko'zi ojiz sportchilar orasida ilk medalni qo'lga kiritgan sportchi sifatida tarixga kirgan edi.

O'zbekiston terma jamoasining zafarli yurishlari bilan boshlangan nufuzli musobaqaning ikkinchi kuni xuddi dastlabki kundagi kabi sportchilarimizning medallar shodasini qo'lga kiritishi bilan davom etdi.

Jumladan, Kubaro Hakimova para yengil atletika bo'yicha ayollar o'rtasida F41 klassida yadro uloqtirish bo'yicha bahslarda 10,36 metr natija qayd etib, ikkinchi o'rinni egalladi va navbatdagi kumush medalni delegatsiyamiz hisobiga qo'shib qo'ydi.

8-sentabr qadar davom etadigan ushbu musobaqada 65 nafar para atletimiz 9 ta sport turidan 113 ta litsenziyani qo'lga kiritgan holda ishtirok etmoqda.

Bu ham jamoamizning o'ziga xos rekordidir. Chunki paralimpiyachilarimiz 2016-yil Rio de Janeyro shahrida bo'lib o'tgan o'yinlarga 32 ta, Tokiodagi o'yinlarga 70 ta litsenziya qo'lga kiritgan.

Sportchilarimizning muvaffaqiyatli yurishlari mustaqilligimizning 33 yilligi bayramiga munosib tuhfa bo'ldi. Ishonamizki, ular zafarli yurishlarini davom ettirib, xuddi olimpiadachilarimiz kabi yangi tarix yozadi.

Avazbek XUDOYQULOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHNING ILMIY ASOSLANGAN KONSEPSIYASI

Bugungi kunda cho'llanish yuzdan ortiq davlatga tahdid solmoqda. Bu ko'p jihatdan inson omiliga bog'liq bo'lib, tabiatdan ayovsiz foydalanish oqibatida tuproq va shamol eroziyasi ushbu jarayonni yanada tezlashtiryapti.

Mutaxassislar fikricha, yurtimiz hududining 70 foizi yoki 31,4 million gektar tabiiy sho'rlanishga, qum ko'chkilari, changli bo'ron va garmel tarqalishi ta'siriga uchragan qurg'oqchil va yarim qurg'oqchil maydonlardan iborat. Qariyb 10 million gektar yaylov tubdan yaxshilanishga muhtoj.

Keyingi yillarda atrof-muhitni muhofazalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, cho'llanish va qurg'oqchilikning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Sohaga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy baza yaratilib, doimiy takomillashtirib borilmoqda. Xususan, Yer kodeksi, "Yaylovlar to'g'risida"gi, "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida"gi qonunlar bilan tuproq unumdorligini oshirish va tiklash, tabiiy muhitni asrash masalalari batafsil tartibga solindi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, shubhasiz, yurtimizda cho'llanishning oldini olish, o'rmonlarni qayta tiklash va ihotaga o'rmonlarini ko'paytirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi. 2030-yilga qadar amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar qatorida yerning cho'llanish va degradatsiya darajasini kamaytirish, o'rmon resurslari, yaylov va yer resurslarini barqaror boshqarishni ta'minlash hamda Orol dengizining qurigan tubida dov-daraxtlar ekilgan maydonlarni ko'paytirish kabilor o'rin olgan.

Yurtimizda har yili "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida yashil

maydonlar kengaytirilayotgani, xususan, Orol dengizining qurigan tubida keyingi yillarda qariyb 2 million gektar maydon o'rmonlashtirilgani hamda o'rmon fondi yerlari maydoni mamlakat umumiy maydonining 25 foiziga yoki muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni 14 foizga yetkazilishi nafaqat O'zbekiston, balki mintaqada davlatlarni manfaatlar uchun ham xizmat qilmoqda.

Suv tejoyvchi texnologiyalarni keng qo'llashga ham ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar natijasida bugun suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yer sug'oriladigan maydonning qariyb 25 foizini tashkil qilib, buning hisobiga 2023-yilda 3 milliard kub metr suv iqtisod qilingan.

Bugungi iqlim o'zgarishlari ta'siri darajasidan ortda qolmaslik maqsadida Prezidentimizning sohada islohotlarni jadallashtirishga yo'naltirilgan qator farmon va qarorlari qabul qilindi.

Xususan, davlatimiz rahbarining shu yil 24-iyundagi "Iqlim o'zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qishloq xo'jaligini iqlim o'zgarishiga moslashtirish va sohada iqlim o'zgarishlariga bo'lgan salbiy ta'sirni yumshatish borasida muhim hujjat bo'ldi.

Qarorga muvofiq, qishloq xo'jaligida iqlim o'zgarishiga bog'liq xavflarga moslashuvchanlikni oshirish bo'yicha chora-

tadbirlar dasturi ishlab chiqilishi global iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga bardoshli yangi nav va duragaylarni yaratish hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlashning resurs tejaydigan texnologiyalarini ishlab chiqish, tuproq sho'rlanishini kamaytirish yuzasidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ilmiy loyihalar tanlovi doimiy ravishda amalga oshirishning huquqiy asoslarini yaratadi.

Hujjat bilan mutasaddi vazirlik va idoralarga cho'l, tog'li va tog'oldi hududlarda cho'llanish va qum ko'chishi, tuproqning suv va shamol eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o'rmonlari (ihota) barpo etish vazifasi qo'yildi. "Har bir fuqaro uchun — bir daraxt" tamoyili asosida ko'rik-tanlov tashkil etib, uni ommalashtirish choralari ko'rish bo'yicha belgilangan vazifalar, o'z navbatida, "Yashil makon" umummilliy loyihasini rag'batlantirish orqali mazkur umumxalq tadbirini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Umuman, Prezidentimiz umumbashariy ekologik muammolarni hamkorlikda hal etish borasidagi tashabbuslarni turli xalqaro anjuman va uchrashuvlarda ilgari surmoqda va ular xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda davlatimiz rahbarining atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish borasidagi 4 ta tashabbusi doirasida BMTning maxsus rezolyutsiyalari qabul qilingan.

Shu yil 13-avgust kuni BMT Bosh Assambleyasi tomonidan navbatdagi — "Degradatsiyaga uchragan va qurg'oq hududlarda barqaror o'rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ'ib qilish — ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi" rezolyutsiyasi bir ovozdan qabul qilindi.

Mazkur rezolyutsiyada Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi va BMTning Iqlim bo'yicha 28-konferensiyasida iqlim o'zgarishiga va yer degradatsiyasiga qarshi samarali kurashish bo'yicha bildirgan asosiy takliflari o'z ifodasini topgan.

Rezolyutsiyada o'rmonlarni barqaror boshqarish va daraxt o'tqazishning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklari har tomonlama ko'rsatilgan. Ularning biologik xilma-xillikni oshirish, iqlim o'zgarishi va havo ifloslanishi oqibatlarini yumshatish hamda barqaror yurishlarini maqsadlariga erishishga qo'shgan hisssasi, jumladan, kambag'alikka barham berish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi hisssasi alohida ta'kidlanadi.

Hujjatning o'ziga xos xususiyati uning atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi so'nggi ilmiy yo'nalishlarga muvofiqligidir. Ekologik toza va ekotizimga asoslangan usullardan foydalangan holda biologik xilma-xillikni saqlash va ko'paytirish maqsadida BMTga a'zo mamlakatlarga daraxt ekish sohasida aniq tavsiyalar beriladi.

Rezolyutsiyaga 100 dan ortiq a'zo davlat hamda dunyoning turli mintaqalarini ifodalovchi boshqa davlatlar hammualliflik qildi.

Umuman aytganda, BMTning O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan maxsus rezolyutsiyasi dunyo mamlakatlari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish bilan birga fuqarolarimizga qulay atrof-muhit yaratishning huquqiy asoslarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Islom XUSHVAQTOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Munosabat



Aziza QURBONOVA,
jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Oradan 3 yil o'tdi

Yodingizda bo'lsa, Respublika onkologiyasi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati onkologiyasi birlashtirilishi va shahar periferiyasida 3 ta muassasa bitta binoga ko'chirilishi haqida jamoatchilik muhokamalari bo'lgan. O'zim ham bu muassasalarning birlashtirilishini savol ostiga olganman, axir minglab bemorlarni bitta shifoxonaga sig'dirib bo'ladimi, deb. Bu birlashishni jon deb qo'llaydigan va ma'qullamaydigan shifokorlar fikrini o'rgangandim. Ikkala taraf ham asosli argumentlar aytgandi.

O'zgartgan fikrim

Bugun yangi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga kelib, bu juda to'g'ri qaror bo'lgan, deb hisobladim. Va nihoyat, o'zingni insondek hisoblab, davolanish uchun sifati sharoit, eng so'nggi zamonaviy apparatlar olib kelinganini, davolash usullari o'zgarayotganini, men Hindistonning klinikalarida ko'rib havas qilganlarimdan-da yaxshiroq qulayliklarni, bitta joyda eng yaxshi mutaxassislar kuchi birlashganini ko'rib, ham xursand bo'laman, ham avvalni eslab yuragim og'riydi. Qancha bemor o'sha kurs, sharitsiz binolarda shiftga tikilib yotib, bugunga yetib kelolmadi...

Respublika onkologiyasining sovuq koridorlarida izillab gistologiya javoblarini kutib o'tirganimiz, shahar onkologiyasida nur terapiyaga 3 oydan keyin keladigan navbatni

HAYRATDA QOLGANINGIZDAN HAM TUZALIB KETASIZ

Tibbiyot markazi ko'plab nursiz qalblarga ishonch, umidbaxsh hayot nafasini olib kirdi

tezlashtirish uchun tanish-bilish qidirganimiz, oxiri ovoragarchilikdan bezib, "qancha pul ketsa-ketsin, faqat Hindistonga" deb 3 marta borib-kelganimizni alam bilan esladim. Nega o'zimda hech bo'lmasa, bitta shifoxonada tartibli, to'g'ri protokol bilan davolash mumkinmas, derdim alam bilan...

Prezidentimiz yangi markazga kelganida "80 million dollar evaziga eng oxirgi onkologik-texnik jihozlar olib kelindi, yuzdan ortiq onkolog xorijiy davlatlarga o'qishga jo'natildi, "nol"dan 8 qavatli, 9 ta binoli markaz qurildi. Buncha pul hech qachon bu sohaga berilmagan. Yana 2027-yilgacha 1200 onkologni xorijga bosqichma-bosqich yuborib, o'qitib kelamiz", dedi.

Bizda onkologik vaziyat qanday?

O'zbekistonda o'lim sababi bo'yicha 1-o'rinda yurak, qon-tomir kasalliklari, 2-o'rinda saraton kasalligi turadi. Hozir kuzatsangiz, har bir katta oila, qarindosh-urug'ingizda bitta saratonga chalingan a'zoni topish mumkin bo'lib qoldi.

Bugun aytilgan statistikaga ko'ra, O'zbekistonda har 100 ming aholiga nisbatan o'rtacha 73 nafar onkobemor ro'yxatga olingan. Bu raqam Toshkentda 152,4 nafar, Buxoroda 94,8, Qoraqalpog'istonda va Xorazmda 71, Toshkent viloyatida 85 nafarni tashkil qiladi. Hali o'zining kasalligini bilmayotganlar, ro'yxatga qo'yilmaganlar ham ko'p.

Yana aytishlaricha, O'zbekistonda saratonni erta aniqlash ko'rsatkichi 44 foizga yetibdi. Bu raqam onkologiya profilaktikasi birmuncha o'sganini ko'rsatadi. Shu yilning 8 oyi davomida 1 million 340 mingdan ziyod ayol skriningdan o'tkazilganda, 997 nafarida ko'krak saratonni, 30 mingdan ziyod kishida saraton oldi bosqichi aniqlangan. Bachadon bo'yini saratonni esa 766 nafar ayolda topilgan.



Markazdagi yangiliklar

Prezidentimiz aytganidek, onkologiya butun dunyoda yosharib bormoqda. O'z vaqtida va to'g'ri qo'yilgan tashxis onkologiyani yengishning yagona yo'li. Buning uchun "pervichka" to'g'ri ishlashi kerak. Poliklinikalarda o'tkazilgan skriningni to'g'ri o'qiy olish uchun markazda barcha hududlarni real vaqt rejimida kuzatib turadigan maxsus situatsion bo'lim ochilibdi. Unda, deylik, hududdagi shifokor tashxisni qo'yishda qiyinlangan yoki shubhalangan bo'lsa, markazdagi shifokorlar konsilium qilib tizimda ko'rinib turadigan suratlar orqali tasdiqlab berishadi.

Birinchi qavatdan sakkizinchi qavatgacha aylanib chiqdik. Bunker qismida yadro tibbiyoti, PET KT tekshiruv va radioterapiya amalga oshiriladi. Shunday qilib, onkologiyada tashxis qo'yishning eng asosiy apparati — PET KT Toshkent shahrida 4 ta bo'ldi, davlat shifoxonasida esa bunisi eng birinchi hisoblanadi. Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Farhod Toshpo'latovga avvalgi 3 ta kasalxonadagi

bemor o'rni bilan solishtirganda, ushbu birlashtirilgan markazning ko'yaklari soni qisqarib ketmadimi, deb savol berdim.

— Yo'q, qaytaga imkoniyat oshdi, — deydi vazir o'rinbosari. — Endi yiliga 340 ming bemor bilan ishlay olamiz, chunki bu yerda, umuman, boshqacha yondashuv qildik. Oldin kimyoterapiya olish uchun kasallar bir necha kunga stasionarga yotqizilardi. Hozir zamonaviy sharoit va protokol bo'yicha buning hojati yo'q. Ambulator tarzda muolajalarni sifati olish imkoni bor. Natijada 34 milliard so'm xarajat iqtisod bo'lyapti, bunga biz ko'proq bemorlarni bepul dorilar bilan ta'minlay olamiz. Shifoxona ikki smenada ishlaydi. Kechkisida muolaja olganda kamaytirilgan tariflar qo'llaymiz. Menejment o'zgaradi.

Davolanish bepulmi, pullimi?

Ushbu savolimga Farhod Toshpo'latovning javobi quyidagicha bo'ldi: "Davolanish kontingent uchun bepul, turli hududlardan kelgan bemorlarga hududiy tizimdan berilgan yo'llanma asosida, yo'llanmasiz kelganlarga va xorijiy davlat fuqarolariga puli xizmatlar

taqdim etiladigan bo'lyapti. Keyinchalik sug'urta orqali ham xarajatlarni qoplash mumkin bo'ldi. Bu yerda 300 shifokor, 950 hamshira kungina 2,5 ming aholiga xizmat ko'rsatishi mo'ljallangan".

Prezidentimiz ortidan boshqa qavatlariga chiqib ko'rarakamiz, men xorijda ko'rgan texnikalarni ko'rib, "va nihoyat!" deb quvonib yurdim.

Hozir bemor kimyoterapiya olayotganda tomchi ukol orqali butun tanaga dori yuboriladi. Bunda saraton hujayralari bilan birga sog'lom hujayralar ham zararlanadi, organlar faoliyatiga jiddiy ta'sir qiladi. Soch to'kiladi, umumiy holat og'irlashadi.

oladi. Kelajakda O'zbekistonda ilk marta suyak ko'migi transplantatsiyasi yo'lga qo'yilishini gapirib berishdi.

Shu o'rinda Singapur, AQSH, Koreyada ishlagan Dilshod Egamberdiyevdan so'radim: — Camarqanda jigar ko'chirilgan bemor ham, donor ham vafot etgandi. Sabab nima bo'lgan?

— Chunki bunday amaliyot uchun eng muhim maxsus mikroskop va organni ko'chirib o'tkazayotganda boshqa a'zolarga zarar yetmasligiga yordam beradigan tibbiy uskunalar bo'lmagan, — deydi u. — Hozir men turgan xonada muvaffaqiyatli transplantologiyani o'tkazish uchun hamma narsa bor. Bu men uchun orzudagi operatsiya bloki.

Prezidentimizning jurnalistlarga aytganlari

Prezidentimiz bu mavzuda ikki marta jurnalistlar bilan gaplashdi. Andijondagi subhatimizni eslatib, nihoyat o'sha rejalar amalga oshayotganini aytdim.

Davlatimiz rahbari "Yo'ning boshidamiz, hali yana eng chekka joylarimizgacha muammolarni sekin-asta hal qilib boramiz", dedi. Shavkat Mirziyoyev bu markazni bayramga atab, "urra-ur" qilib ochishga ruxsat bermaganini, qator masalalar hal etib olingach, keyin ish boshlashi zarurligini gapirib berdi.

Prezidentimizni tinglab turib, u kishi qayg'urayotgan 4 ta masalani ajratib oldim.

Birinchi, endi bu markazga zamonaviy menejment va tartibli, shaffof ishlaydigan menejer kerak.

Ikkinchi, nafaqat markaz, balki butun tizimni raqamlashtirish. Shunda korruptsiyani cheklash mumkin, shunda navbatlanish oldini olish mumkin, odamlar uyidan turib, shifoxonaga qachon kelishini biladi va hakoza.

Uchinchi, kadrlar sifati masalasi. Bino va uskunani ishlatiladigan kuchli kadrlar zarur. Hududlardagi shifokorlarni markaz bilan bog'lash, eng yaxshi che el klinikalariga malaka oshirgani yuborish shart.

To'rtinchi, davlat sug'urta tizimi bo'yicha jarayonni tezlashtirish.

Umidxona

Markazdan chiqayotganda 5 yildan beri onkologiya bilan jon berib, jon olib kurashayotgan Ma'mura opamga ko'zda yosh bilan SMS xabar yubordim. "Bir-ikki oyga qolmay judayam zo'r joy ochilyapti, Koreya, Turkiya, Hindistondagidan kammam, sizni shu joyga olib kelaman, hayratda qolganingizdan ham tuzalib ketasiz". Ilohim, shunday bo'lsin.

Bu yerga hech kimning ishi tushmasinu, mabodo taqdir taqoz qilsa, bu dargohdan sog'lom bo'lib, rozi bo'lib chiqib ketsin. O'zbekistonga juda zarur umidxona hammamizga muborak bo'lsin!

Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!

OLIJANOB MAQSAD YO'LIDA



Odiljon IMINOV,
Oliy Majlis Senatining
Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash
qo'mitasi raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

istiqlol tufayli xalqimiz tiynatidagi erk va ozodlikka bo'lgan nekbin ishonch yana qayta uyg'ondi. Mustaqillik bugungi kunda ko'p millatli xalqimizni yangi O'zbekistonni barpo etishdek buyuk maqsad yo'lida birlashtirib, yangi yutuq va marralar sari ilhomlantirmoqda.

Mamlakat tayanchi

Aynan mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to'laonli subyektiga aylangan, bugun dunyo bizni yangidan tanib, tan olayotgani rost. Davlat va jamiyat hayotining barcha jabhasida tub o'zgarishlar ro'yog'ga chiqarilib, "inson — jamiyat — davlat" tamoyili asosida kechayotgan islohotlar, avvalo, xalqimiz turmush darajasi izchil oshishi, milliy iqtisodiyotimizning jadal sur'atda taraqqiy etishi, odamlarimizda bugunidan rozilik hissi mustahkamlanishida hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Xususan, keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish, "yashil" va raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha tabiiy etilayotgan yirik dastur va loyihalarni o'z natijasini beraypti. Biz yuqorida bejiz jadidlarimiz va ularning orzusi haqida gapirmadik. Ayniqsa, o'lka yoshlarini ilm va tajriba o'rganish uchun xorijga yuborishga ko'maklashgan ma'rifatparvar mulkdorlarni yodga olar ekanimiz, bugun mamlakatimiz tayanchi sifatida e'tirof etilayotgan tadbirkorlarimizning mustaqilligini mustahkamlashga, elu yurt, o'sib kelayotgan avlod istiqboliga qanday ulush qo'shayotgani beixtiyor xayolimizdan o'tadi.

Shu yil 20-avgust kuni Nukus shahrida Prezidentimizning tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqoti bo'lib o'tdi. So'nggi yillarda yaxshi an'anaga aylangan bu muloqotda ko'ngilli yanada ko'taradigan ko'plab raqam va dillarni ta'lim olindi.

Jumladan, ayni paytda yurtimizda uch yildan ortiq ishlayotgan korxonalar ulushi 76 foizni tashkil etib, ilk bor 300 mingtaga yetgan. Yana 100 mingdan ziyod shunday yakkala tartibdagi tadbirkor bor. Joriy yilning o'zida tadbirkorlarning tovar aylanmasi o'tgan yildagidan 25 foiz ko'payib, 986 trillion so'mni tashkil qilgan. Yillik aylanmasi 10 milliard so'mdan 100 milliard so'mgacha bo'lgan o'rta korxonalar ikki karra ko'paygan. Aylanmasi 100 milliard so'mdan ortiq yirik korxonalar esa 2200 tadan oshgan. Bir paytning o'zida yuzdan ortiq kishini ish bilan ta'minlagan korxonalar 3 mingtaga yaqinlashgan.

Demak, aholi bandligi va turmush farovonligini oshirish yo'lida namuna va jonbozlik ko'rsatayotgan tadbirkorlarimiz oz emas va ular safi yil sayin kengayib bormoqda.

Investitsiya va biznes muhitini yaxshilashga ustuvor e'tibor qaratilayotgani, qo'shni davlatlar bilan savdo va iqtisodiy aloqalar yuksalib borishiga zamin yaratilayotgani yana bir diqqatga molik jihatdir. Zotan, qayd etilganidek, O'zbekiston mahalliy korxonalar uchun ham, chet el kompaniyalari uchun ham katta bozor, mintaqadagi sanoat xabiga aylanib ulgirdi. Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshdi va shu yilning birinchi yarmida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya hajmi o'tgan yildagiga nisbatan 2 karra o'sib, 14 milliard dollarga yetdi. Bunday raqamlar 33 yillik tariximizda bo'lmagan.

Tadbirkor bo'y bo'lsa, davlat ham, xalq ham bo'y bo'lishi kunday ravshan. Ammo bizningcha, bugun ana shu tadbirkorlarimiz mamlakat iqtisodiy qurilishini oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlariga parallel ravishda ijtimoiy islohotlarning ham faol ishtirokchisi bo'lishi kerakligini davrning o'zi taqozo qilmoqda. Mamlakatning eng katta xazinasi, strategik resursi hisoblangan yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini oshirishda tadbirkorlarimiz fidoyiligi, kuch-g'ayrati va investitsiyasiga ehtiyoj yuqori bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiyotni liberallashtirish, ta'lim sifati va aholi turmush darajasini oshirish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar bugun samarasini bera boshladi. Xususan, jozibador investitsion muhit yaratildi va hududlar kesimida qo'shma korxonalar, klasterlar, kooperatsiyalar ish boshlab, ko'plab aholi ish bilan ta'minlandi, mahallaboy ishlab tizimi joriy qilindi. Asriy

Bundan o'ttiz uch yil oldin, og'ir va murakkab tarixiy vaziyatda qo'lga kiritilgan



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Sanoat,
qurilish va savdo masalalari
qo'mitasi raisi, iqtisodiyot fanlari
doktori, professor

turg'unlik qobig'i bo'lgan majburiy mehnatga barham berilib, qishloq xo'jaligi isloh qilindi. Fan va ta'lim sohalarida xalqaro standartlar asosida taraqqiy etib boshladi.

Hayot-mamot masalasi

Tarix va bugungi kun ilm-fan taraqqiyoti insoniyat rivojlanishida nechog'liq ahamiyatli ekanini ko'rsatib berdi. Turli suronli yillar va mustabid tuzum davrida yurtimiz farzandlari ichidan yetishib chiqqan olim fuqalarning boy ilmiy merosi qisman yo'qotildi. Ibn Sinoni Avitsenna, Farg'oniyi Alfraganus, Xorazmiyning Algoritm nomi bilan taniganimiz ham bor haqiqat. Yaratganga shukrki, insoniy qadri-qimmatimizni, g'urur va sha'nimizni, dinu diyonatimizni, milliy davlatchiligimizni tiklab bergan mustaqillik tufayli yangi O'zbekiston nomi bilan taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'ydi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining eng muhim yo'nalishi bo'lgan ta'lim-tarbiya, xususan, maktab ta'limi hozirgi murakkab zamonada har bir davlat uchun rostdan ham hayot-mamot masalasi aylandi. Bu sohadagi islohotlarni kechiktirmaslik, rivojlanish paydevorini mustahkam qo'yish bizga etarimizni zamonaviy bilimlarni egallagan, sog'lom va raqobatbardosh yoshlar qo'lga topshirishdek chinakam baxtni im'om etadi.



Har bir xalq, millatning asosiy dushmani — ilmsizlik. Taraqqiyot yo'lini tanlagan davlat va jamiyat borki, mavjud kuch-quvvatini, kapitalini aynan ma'rifat va ta'limga sarf etishga intiladi. Bugun shitob bilan iqtisodiy va texnologik yuksalib borayotgan davlatlar tajribasi bunga yaqqol misol. Ilmiy tadqiqotlar ta'limga yo'naltirilgan 1 dollar sarmoya mamlakat uchun kelgusida 3-6 dollar miqdorida foyda keltirishini allaqachon isbotlagan.

Yangilangan Konstitutsiyamizda ham ta'lim masalalariga bag'ishlangan alohida modda mavjud. IX bobning 50-moddasiga ko'ra, har bir shaxs to'g'ridan to'g'ri ta'lim olish huquqiga ega, davlat uzluksiz ta'lim tizimini, maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun sharoitlar yaratadi, umumiy o'rta va boshlang'ich kasb-hunar ta'limining bepul bo'lishini kafolatlaydi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida esa yosh avlodning ushbu konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yog'ga chiqarish, ta'lim tizimini yanada yuqori darajaga ko'tarishga qaratilgan ustuvor maqsad va vazifalar qamrab olingan.

Kezi kelganda ushbu maqsad va vazifalar tizimli amaliy tasdig'ini topishida davlat bilan birga xususiy sektor — tadbirkorlarimiz ham faol ishtirok etayotganini ta'kidlamq joiz.

Misol uchun, joriy yil yanvar holatiga mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 33 ming 942 tani tashkil etgani holda ularning 6780 tasi davlat, 27 ming 162 tasi davlatdan bog'cha hisoblanadi.

O'zbekistonning yaxshi qo'shnihilik va pragmatik mintaqaviy siyosati Markaziy Osiyoning barqaror va ulkan imkoniyatlarga ega hamkorlik makoniga aylanishiga katta yordam bermoqda.



Bugungi kunda 3-7 yoshli uch millionga yaqin bolaning 74 foizini maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishda, strategik rejaga ko'ra, mazkur ko'rsatkichni 2026-yilgacha 80 foizga, 2030-yilga borib, yuz foizga yetkazishda tadbirkorlik subyektlarining muhim o'rni va ta'siri borligi mutlaq haqiqat.

Yoki 2023/2024-o'quv yilida nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni 293 tani tashkil etgan. Vaholanki, 2018-2019-yillarda xususiy maktablar soni qo'l bilan sanagulik bo'lgan.

Bugungi kunda sifati ta'lim-tarbiya berish, bunda eng ilg'or davlatlar tajribalarini qo'llash, bolalarning sog'lom o'qitilish rasionini yo'lga qo'yishdan tortib, tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan vazifalarni samarali uddalashga xususiy maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari peshqadamlik qilmoqda. Chekka-chekka tuman, qishloq va ovullarda zamonaviy qiyo'fadagi bog'cha va maktablar qad rostlayotgani, yuqori malakali pedagog kadrlar

mulohazalarida uzoq tarixda o'z davrining ikki buyuk sivilizatsiyasi nafaqat tovar, balki bilim ham almashganiga alohida e'tibor qaratib, jumladan, ilm-fan, madaniyat-ma'rifat har qanday mamlakatni yuksaklikka ko'tarishi, xalqning yorqin kelajagini oldindan ko'rsatib berishini bayon etgandi.

Darhaqiqat, ilm-ma'rifat e'zozlangan, ta'lim-tarbiyaga yuksak darajada ahamiyat berilgan mamlakatda turli nizo, urush to'g'risida o'ylash hech kimning xayoliga ham kelmaydi. Zero, ilm-ma'rifat insonni ulug'laydi. Ta'lim-tarbiyaga ustuvor ahamiyat berish, bu haqda qayg'urish mamlakat va xalq istiqbolini o'ylash demak.

Iqtisodiyotimizga yangi texnologiya va bilimlar kirib kelishi rivojlanishga ijobiy ta'sir o'tkazib, aholi daromadini ko'paytirish, pirovardida farovon hayotni ta'minlashga xizmat qiladi. Aynan fan va ta'lim inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha mavjud salohiyatni to'liq o'chishga yordam beradigan eng muhim yo'nalish hisoblanadi.

Innovatsiyaga talab ortayotgan, raqamlashtirish jarayoni jadallashayotgan, texnologiyalarning yangi avlodi vujudga kelayotgan hamda sun'iy intellekt joriy qilinayotgan bir paytda davlat xizmatida ham, xususiy sektorda ham malakali mutaxassislar talab oshib borayotgani yana bir e'tiborli jihattir.

Mintaqamizda hamjihatlik, birdamlik, do'stona muhit yuzaga keldi

Istiqlol yillarida O'zbekiston dunyo hamjamiyatida mustaqil davlat sifatidagi mavqeiini mustahkamlagan bo'lsa, so'nggi yillardagi islohotlar uning xalqaro darajadagi nufuzini yanada oshirdi.

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik, do'stona, o'zaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash siyosati alohida ahamiyatga molik voqeelidir. Davlatimiz rahbarining kuchli siyosiy irodasi va tashabbusi mintaqa mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorligini, investitsiyaviy hamkorlik, transport logistikasi kabi qator sohalaridagi aloqalarni kengaytirish uchun ishonchli zamin yaratdi. Uzoq tarix mobaynida qiz berib, kelin olgan qardosh xalqlar o'rtasida hamjihatlik, hamkorlik mustahkamlanib, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta'minladi.

Mintaqa davlatlari o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish taraqqiyoti omili ekanini bugun erishilayotgan natijalar to'la isbotlab bermoqda.

Uzoqqa bormay, yaqinda o'z nihoyasiga yetgan "Parj — 2024" Olimpiadasida kuzatilgan bir voqeani yodga olaylik. To'rt yillikning muhim sport tadbirida turli bayroq ostida arenaga chiqsak-da, lekin insoniylikimiz, bir-birimizga hurmatimiz, xalqlarimiz orasidagi do'stona muhitning qanchalik ijobiy tomonga o'zgariganiga guvoh bo'ldik.

"Boks bo'yicha o'zbek murabbiysi Akmal Hasanov qirg'izistonlik bokschi Munarbek Seyitbek o'g'liga yordam berib, uning musobaqaning finaligacha borishiga ko'maklashgan mintaqamizdagi do'stona munosabatning yorqin namunasi bo'ldi. Aholi qo'shnihilik tamoyillariga qurilgan siyosatimiz bugun xalqlarimiz yuragiga ko'chganini ko'rish, albatta, quvonchlidir". dedi Prezidentimiz bu borada so'z yuritir ekan.

Bundan ko'rinadiki, O'zbekistonning mintaqada tutgan o'rni va yuritayotgan tashqi

siyosati katta o'zgarishlarga qanot bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo-sotiq, kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishga katta yordam bermoqda. Bundan tashqari, qo'shni davlatlarning O'zbekiston bilan chegaradosh hududlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqalar o'rnatish va mintaqaviy iqtisodiy forumlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Qo'shni davlatlar bilan sanoat kooperatsiyasi yo'li orqali hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, yirik investitsiya loyihalarini birgalikda amalga oshirish va qo'shma ishlab chiqarish obyektlarini yaratish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. O'tgan qisqa vaqt mobaynida 30 dan ortiq muhim yo'nalishda o'zaro manfaatli va keng qamrovli hamkorlik yo'lga qo'yildi. Ayni vaqtda bu boradagi sa'y-harakatlar izchil davom etayotir.

Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro aloqalarida ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlari, jumladan, munosabatlarni BMT, MDH, SHHT, Turkiy davlatlar tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa tuzilmalar doirasida ham rivojlantirish, bunda nafaqat siyosiy-diplomatik munosabatlar, balki iqtisodiy, parlamentlararo hamda xalq diplomatiyalari kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan.

O'zbekistonning yaxshi qo'shnihilik va pragmatik mintaqaviy siyosati Markaziy Osiyoning barqaror va ulkan imkoniyatlarga ega hamkorlik makoniga aylinishiga katta yordam bermoqda.

Ayni vaqtda esa o'zaro kuchlarni birlashtirib, qo'shilgan qiymat zanjirlarini yaratish, yetakchi xalqaro kompaniyalardan investitsiya va texnologiyalarni jalb qilish, kooperatsiyaning yangi shakllarini joriy etish orqali mintaqani sanoatlashirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu umumiy rivojlanishda muhim o'rinda ega.

Umuman olganda, ochiq va samarali muloqotlar, ilgari surilgan muhim tashabbuslar, ishga tushirilgan ko'p tomonlama loyiha va dasturlar, amalga oshirilgan ko'plab qo'shma tadbirlar mintaqaviy qiyofasi va imjini tubdan o'zgartirdi. Muvofiqlashtirilgan faoliyat natijasida tovar ayirib oshlash va investitsiyalar hajmi bir necha barobar ko'paydi. Birgalikda keng ko'lami hamkorlik loyihalari amalga oshirilib, chegaradoi savdo hududlari, zamonaviy transport va energetika infratuzilmasi barpo etilmoqda. Birdamlik va mintaqaviy o'ziga xoslik tuyg'usi tobora mustahkamlanib bormoqda. Eng muhimi, ushbu ijobiy o'zgarishlarni mintaqa mamlakatlari fuqarolari o'z kundalik hayotida his qilyapti.

Ayni hamkorlik natijasida yangi qiyofa kasb etgan tashqi iqtisodiy faoliyat orqali tadbirkorlar uchun yangi bozorlarga chiqish imkoniyati kengaydi. Yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish usullari va xalqaro standartlarni o'rganish uchun zamonaviy muhit yaratadi.

Ushbu maqola orqali mustaqillik yillarida amalga oshirilgan barcha yutuqlarni qamrab olish imkonisiz bo'lsa-da, ularning ayrim jihatlarni o'chishga harakat qildik. Eng muhimi, mustaqillik bizga har kim o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini berganini, adolati, demokratik, insonparvar jamiyat qurish, o'z milliy davlatchiligimizni barpo qilishga imkoniyat yaratganini teran anglamoqdamiz. Istiqol tufayli O'zbekiston xalqaro miqyosda o'zini tanitish, barcha davlatlar bilan teng hamkorlik qilish imkoniyatini o'ziga kiritdi, bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun sharoit barpo etildi, mulkka munosabat o'zgaridi, xalqning ma'naviy uyg'unlashi uchun to'la imkoniyat yaratildi. Yurt tarixi, qadriyatlarimiz tiklandi.



Terxi XAKALA: YEVIROPA ITTIFOQI O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-IQTISODIY O'ZGARISHLAR BO'YICHA ISLOHOTLAR DASTURINI ILGARI SURISHDAGI QAT'YATI VA SA'Y-HARAKATLARINI YUQORI BAHOLAYDI

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili Terxi Xakala O'zbekiston Mustaqilligining 33 yilligi arafasida "Dunyo" axborot agentligiga intervyu berdi.

— Xakala xonim, siz bilan O'zbekiston Mustaqilligi bayrami arafasida subhbatlashayotganimizdan mamnunmiz. Muloqotimizni mamlakatimizning bugungi taraqqiyoti, amalga oshirilayotgan demokratik va iqtisodiy islohotlarning samarali natijalari Yevropada qanday baholanmoqda, degan savoldan boshlasak.

— Tashakkur. Avvalo, ushbu intervyuda ishtirok etish imkoniyati uchun minnatdorlik bildiraman. O'zbekiston xalqi va rahbariyatiga mamlakat Mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan samimiy tabriklarimni izhor etaman.

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo'yicha maxsus vakili sifatida ish faoliyatimda asosiy e'tiborni mintaqaviy rivojlanish va hamkorlik masalalariga qarataman. Shu bois, mamlakatimizga tez-tez tashrif buyurish va O'zbekiston hukumati bilan juda samarali hamkorlik qilish sharafiga muyassar bo'ldim.

Markaziy Osiyodagi mintaqaviy o'zgarishlarga nazar tashlar ekanman, birinchi navbatda, O'zbekistonning qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikni mustahkamlashdagi hamda mintaqaning Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlaridagi muhim o'rni alohida e'tirof etishni istar edim. Respublikaning bunday tashqi siyosat yuritishi natijasida Markaziy Osiyoni yanada barqaror va xavfsiz mintaqaga bo'lishda muhim va ijobiy jarayonni kuzatilmogda. O'z navbatida, Yevropa Ittifoqi ham O'zbekiston va butun mintaqaga bilan munosabatlarini chuqurlashtirishga intiladi.

O'zbekiston hukumati ijroiy mintaqaviy pozitsiyasiga ega bo'lib borishi barobarida Yevropa Ittifoqi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bo'yicha islohotlar dasturini ilgari surish borasidagi qat'iyati va sa'y-harakatlarini tan oladi hamda yuksak qadrlaydi. 2016-yildan buyon Yevropa Ittifoqi ushbu islohotlar dasturini texnik va moliyaviy yordam, shuningdek, umumiy qadriyatlar asosida inson huquqlari, ommaviy axborot vositalari erkinligi va samarali boshqaruv sohalarida taraqqiyot uchun O'zbekiston hukumati bilan muntazam hamkorlik qilish orqali qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Shuni mamnuviyat bilan qayd etishni istardimki, bugungi kunga qadar amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning ichki rivojlanish dinamikasini yaxshilash, gender tengligi va nigronligini bo'lgan shaxs huquqlarini rag'batlantirishdan tortib, iqtisodiyotda davlat sektori nazoratini qisqartirish va global miqyosda ochiqlikni oshirishga qadar sezilarli ijobiy natijalar berdi. O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida o'sib borayotgan savdo aylanmasi bu boradagi ijobiy o'zgarishlarning yana bir yaqqol misolidir.

Yevropa Ittifoqi mamlakatning savdo salohiyatini yanada yaxshilash maqsadida O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishini qat'iy qo'llab-quvvatlaydi va respublikada investitsiyaviy muhitni yaxshilash bo'yicha sa'y-harakatlarini davom ettirish tarafdori. 2024-yil aprel oyida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan "O'zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish" loyihasining ishga tushirilishi islohotlarni qo'llab-quvvatlash borasida YI va O'zbekiston o'rtasidagi yaqin hamkorlikning yana bir yorqin namunasi bo'ldi.

Shuningdek, biz mamlakatdagi islohotlar iqlim o'zgarishini yumshatish uchun barqaror rivojlanishga ko'maklashuvchi "yashil" o'tishni boshlab berganini ko'rishdan mamnunmiz. Bu barchamiz uchun muhim bo'lgan va Yevropa Ittifoqining ichki va tashqi siyosatining o'z oldiga qo'ygan maqsadi hisoblanadi.



Tarkibiy islohotlar har qanday hukumat uchun hamisha qiyin kechishini tan olgan holda aytishim mumkin, O'zbekistonning bu boradagi salmoqli yutuqlari bizni ruhlantirmogda. YI mamlakatimizdagi keyingi islohotlar jarayonlarini ham qo'llab-quvvatlash tarafdori.

— Joriy yilda O'zbekiston va Yevropa Ittifoqi muhim sana — diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligini nishonlamogda. Xalqaro ekspertlarga ko'ra, ikki tomonlama sheriklik tarixida hech qachon O'zbekiston va YI o'rtasidagi siyosiy munosabatlar bugungidek jadal rivojlanmagan. Bir qator muhim o'zgarishlar ro'y berdi — Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimning parafirlanishidan tortib, mamlakatning Yevropa Ittifoqi "GSP+" umumiy preferensiyalar tizimida ishtirok etishi, boshqaruv va demokratik boshqaruv, raqamli innovatsiyalar va boshqa sohalarni qamrab oluvchi qo'shma loyihalardagi ishtiroki orqali savdo aloqalarini mustahkamlash, inklyuziv o'sish, barqaror qishloq xo'jaligi, ayollar huquqlari, o'zaro bog'liqlik va boshqa yo'nalishtirish shular jumlasidan. YI ushbu hamkorlikning rivojlanishi va uning kelajakdagi istiqbolini qanday baholaydi?

— Darhaqiqat, joriy yil Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi diplomatik munosabatlar tarixida muhim bosqich bo'lib, o'tgan o'ttiz yil ichida mustahkamlangan aloqalar, manfaatlar uyg'unligi va erishilgan ijobiy yutuqlar bilan faxrlanishimiz mumkin. So'nggi paytlarda munosabatlarimiz faolligi sezilarli darajada oshgani qator omillar, jumladan, Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyarlari tomonidan olib borilayotgan islohotlar dasturi, Markaziy Osiyo va Yevropa o'rtasidagi umumiy yaqin sheriklik va bugungi geosiyosiy kun tartibi bilan bog'liq.

Buning natijasida ham Yevropa Ittifoqi, ham unga a'zo davlatlar tomonidan yuqori siyosiy darajadagi o'zaro sherikligimiz izchil rivojlanib bormogda. Jumladan, Yevropa Kengashi Prezidenti Sharl Mishel va Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili, Yevropa komissiyasi vitse-prezidenti Jozep Borrelning 2022-yilda O'zbekistonga tashrifi, shuningdek, Yevropa komissiyasi vitse-prezidenti Margaritis Sxinaning 2024-yil yanvar oyida Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlariga tashrifi fikrimizni tasdiqlaydi. Keyingi qadam sifatida biz O'zbekiston Samarqandda mezbonlik

YI va O'zbekiston o'rtasidagi sheriklik to'g'ri yo'lda odimlamogda va qator sohalardagi hamkorligimizni yanada kengaytirish uchun katta salohiyat mavjud. Yevropa Ittifoqi, jumladan, kamina ham buning uchun qattiq ishlashda davom etish tarafdoriman.

qilishni taklif qilgan "Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo" sammitini o'tkazishni intilish bilan kutaymiz.

Brusseldagi zarur tayyorlik jarayonlari yakunlanishi bilan qo'llab-quvvatlash Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimning (KSHHTB) parafirlanishi, haqiqatan, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar uchun muhim qadamdir. Ushbu bitim kelajakdagi hamkorligimiz, jumladan, siyosiy mulqot, savdo, investitsiya va iqtisodiy munosabatlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Joriy yilda ikki tomonlama aloqalarimiz tarixida yana bir voqea — O'zbekiston sanoati uchun foydali bo'lgan muhim xomashyo bo'yicha strategik sheriklikni yo'lga qo'yish hamda Yevropa Ittifoqi kompaniyalariga zarur resurslardan foydalanishda yordam beradigan o'zaro Anglashuv memorandumining imzolashini bo'ldi.

Shuningdek, biz boshqa ustuvor yo'nalishtirish, xususan, xavfsizlik, "yashil" iqtisodiyot va raqamlashtirish bo'yicha ham aloqalarni kuchaytirishga intilamiz.

Umuman olganda, YI va O'zbekiston o'rtasidagi sheriklik to'g'ri yo'lda odimlamogda va qator sohalardagi hamkorligimizni yanada kengaytirish uchun katta salohiyat mavjud. Yevropa Ittifoqi, jumladan, kamina ham buning uchun qattiq ishlashda davom etish tarafdoriman.

— Yevropa Ittifoqi O'zbekistonning eng yirik savdo va investitsiyaviy sheriklaridan biridir. Keyingi yillarda O'zbekiston va YI o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar yangi sur'atlarga ega bo'ldi. Yevropa Ittifoqining O'zbekiston bilan hamkorlik qilish uchun qay iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bo'yicha istiqboldagi rejalari qanday?

— Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik, haqiqatan, savdo-iqtisodiy sohada sezilarli o'sish bilan yangi dinamika ega bo'ldi. 2023-yilda o'zaro umumiy tovar aylanmasi 5,1 milliard yevroni tashkil qildi. Xususan, O'zbekistondan Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport (2023-yilda 780 million yevro) yanada o'sishi uchun katta imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston bilan hamkorlikda qulay iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bo'yicha keyingi rejalar qatoriga, birinchi navbatda, Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolashini kiradi. KSHHT investitsiyaviy hamkorlik va savdo sohalarida o'zaro aloqalar doirasini sezilarli darajada kengaytiradigan islohotlarni qo'llab-quvvatlash vositasi bo'lib, bu investitsiyalarni jalb qilishga hamda keyinchalik mamlakat iqtisodiyotini yanada diversifikatsiya qilishga olib keladi. Shu ma'noda, KSHHTning imzolashini nafaqat munosabatlarimizga qo'shimcha sur'at bag'ishlaydi, siyosiy mulqot va savdo-

Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasida "Barqaror rivojlanish uchun global darvoza" mavzusidagi o'zaro bog'liqlik bo'yicha Samarqand konferensiyasida belgilab qo'yilgan. Bu sohada mulqotni kuchaytirish uchun YI tomonidan qanday yangi amaliy qadamlar tashlanishi mumkin? Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyodagi sheriklaridan ushbu mulqotni yanada sifatli rivojlantirish nuqtayi nazaridan niman kutmogda?

— Haqiqatan, Samarqandda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada shaxsan ishtirok etdim va o'shandan beri Transkaspian xalqaro transport yo'lagini shakllantirish bo'yicha rejalar va ishlar qanday ishlab chiqilgani hamda rivojlanayotganining guvohi bo'lib turganimdan juda mamnunman. Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo o'rtasida barqaror aloqalarni mustahkamlash biz uchun asosiy ustuvor vazifa bo'lib qoladi va "Global darvoza" tashabbusi barcha Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun yangi eshiklarni ochadi, jumladan, mintaqalararo transport aloqalarini mustahkamlash imkoniyatlarini taqdim etadi.

Aytish kerakki, 2024-yil yanvar oyida Bryusseldagi investorlar forumini muvaffaqiyatli o'tkazdik. Unda Yevropa va Markaziy Osiyo o'rtasidagi transport yo'laklarini qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro moliya institutlaridan 10 milliard yevro jalb qilindi. Hozirda Transkaspian xalqaro transport yo'lagini ham qattiq infratuzilma investitsiyalari, ham yumshoq komponentlar, jumladan, bojxona tartib-taomillari takomillashtirilgan holda rivojlantirish bo'yicha ishlar boshlandi. Biz Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan ishlardan tashqari, mazkur yo'lak barqarorligini ta'minlash uchun ushbu transport yo'nalishi kesib o'tgan Turkiya, Ozarbayjon, Gruziya va Armaniston kabi davlatlar bilan hamkorlik qilish muhimligini ham yaxshi tushunamiz.

Biz buni butun Markaziy Osiyo mintaqasi va undan tashqaridagi zikr etilgan mamlakatlarni qamrab olgan loyiha deb bilamiz va ularning barchasini o'zaro manfaatli transport koridorini yaratishga jalb etishga intilamiz. Shu munosabat bilan muvofiqlashtirish va hamkorlikka muhim ehtiyoj mavjud. O'ylaymanki, bojxona, chegara va tariflarni tartibga solishni soddalashtirish hamda uyg'unlashtirishda ishtirokchi davlatlarning ochiqligi juda muhim bo'ladi. Ushbu chora-tadbirlar orqali koridorini rag'batlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud, biroq o'zgarishlarni amalga oshirish uchun ham siyosiy iroda ham zarur.

Markaziy Osiyo mintaqasi rivojlanishi uchun transport aloqalaridan tashqari suv, energetika, iqlim va raqamlashtirish ham muhim ahamiyatga ega. Energetika sohasida hamkorlik yo'nalishida Yevropa Ittifoqi qayta tiklanadigan energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash va o'zaro bog'langan mintaqaviy energiya bozorlarini rivojlantirish orqali mintaqada energiya diversifikatsiyasiga ko'maklashadi.

"Yevropa jamoasi" (Team Europe)ning suv-energetika resurslarini integratsiyalashtirish boshqaruvini takomillashtirish va Markaziy Osiyoda "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash uchun investitsiyalarni ko'paytirishga qaratilgan tashabbusi orqali mintaqada "Global darvoza" dasturini amalga oshiryapmiz. Ushbu tashabbus natijasida Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoning mintaqaviy energetika bozorini, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish tashabbuslarini, jumladan, Orolni qutqarish xalqaro jamg'arimasini qo'llab-quvvatlashni va suv, energetika hamda atrof-muhit sektorlarida iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha mintaqaviy siyosat mulqotini qo'llab-quvvatlaydi. Suv

resurslarini boshqarish tobora muhim ahamiyat kasb etmogda, chunki biz iqlimning resurslar mavjudligiga salbiy ta'sirini, shuningdek, ekstremal ob-havo hodisalarining kuchayishini allaqachon ko'rib turibmiz.

Xuddi shunday, YI raqamli ulanishni rivojlantirishga e'tibor qaratgan va "Yevropa jamoasi"ning raqamli aloqalar tashabbusi orqali mintaqadagi keng polosalari infratuzilma investitsiya kiritish, raqamli ko'nikmalarni shakllantirish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishni taklif qilmogda.

Ta'lim Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo hamkorligining yana bir muhim yo'nalishi bo'lib, ayniqsa, akademik almashinuvni va madaniyatlararo mulqotni rag'batlantiradigan "Erasmus+" loyihalari bilan bog'liq.

Tinchlik, xavfsizlik va o'zaro bog'liqlik nuqtayi nazaridan Yevropa Ittifoqi va Markaziy Osiyo umumiy manfaatlariga ega. Xususan, terrorizmga qarshi kurashda birgalikda ishlash tarafdorimiz. Yevropa Ittifoqining mintaqaviy darajadagi chegaralarni boshqarish bo'yicha BOMCA, giyohvandlik moddalari tarqalishining oldini olish bo'yicha CADAP va huquqni muhofaza qilish organlari salohiyatini oshirish bo'yicha LEICA ko'p yillardan buyon mintaqada davlatlari, xususan, O'zbekistonning salohiyatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirib kelmogda. Bu ishlar turli masalalarni hisobga olgan holda davom etadi va yanada rivojlanadi, deb o'ylayman.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega va bu borada YIning yaqin sherigi hisoblanadi. Joriy yilning may oyida Toshkentda Yevropa Ittifoqining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha koordinatori Bartyan Vegter bilan birgalikda "Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo" ekspertlar darajasidagi birinchi xavfsizlik konferensiyasida ishtirok etganimdan xursandman.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan yaqin aloqalar Yevropa Ittifoqining ushbu mintaqaga bilan hamkorligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qolayotir. Yaqinda Ostona shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining oltinchi Maslahat uchrashuvi va O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliyalarining Qozog'istonga amalga oshirgan davlat tashrifi yakunlari mintaqada davlatlari o'rtasidagi hamkorlik qanday rivojlanayotganidan guvohlik bermoqda. Men qo'shni davlatlar o'rtasida bunday yaqin munosabati ko'rib turganimdan xursandman.

— Xakala xonim, subhatimiz yakunida Mustaqillik bayrami munosabati bilan O'zbekiston xalqiga tilaklaringiz bo'lsa bildirishingiz mumkin.

O'zbekiston xalqini yana bir bor Mustaqillik kuni bilan samimiy tabriklayman. Bu kun mamlakat tarixidagi muhim bosqich bo'lib, uning suvereniteti va mustaqilligining o'ttiz uch yilligi nishonlanadi. Farovon jamiyat barpo etish yo'lida tinimsiz mehnat qilayotgan o'zbek xalqining matonati va azmu shijoatini ulug'lash vaqti keldi.

Qattiq mehnat va inklyuziv jamiyat namunasi sifatida men O'zbekiston va uning sportchilarini "Parij — 2024" yozgi Olimpiya o'yinlaridagi ajoyib muvaffaqiyati bilan ham tabriklayman. Shuningdek, Paraliimpiya o'yinlarida O'zbekistonning matonatli atletlariga ulkan zafarlar tilayman.

Mustaqillik bayrami xalqingizni birdamlik va taraqqiyot sari ilhomlantirsin, yuringizda tinchlik va barqarorlik bardavom bo'lsin.

Mustaqillik bayramingiz muborak!

"Dunyo AA"

Brussel

Mulohaza

Davronbek VAHOBOV,
Toshkent shahar soliq boshqarmasi
Shaxsiy xavfsizlik bo'limi
davlat soliq
bosh inspektori

Korrupsiya — taraqqiyot yo'lga jiddiy to'siq bo'lib, jamiyat rivoji, sohalar yuksalishiga bevosita tahdid tug'diradigan illatdir. Shu bois, bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishga davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishtirishidan biri sifatida qaralmogda.

Xususan, davlatimiz rahbari ko'plab ma'ruza va chiqishlarida loqaydlik, beparvolik, poraxo'rlik, korrupsiya, soxtakorlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilishga qarshi kurash

butun jamiyatning maqsadiga aylanishi kerakligi to'g'risida gapirar ekan, unga qarshi kurashishni huquqni muhofaza qilish organlari mutasaddilari oldiga asosiy vazifa sifatida qo'ygan. Bu illatning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmogda.

Korrupsiyaning oldini olishda, avvalo, huquqiy ong birlamchi ahamiyat kasb etadi. Ya'ni odamlarning bu boradagi tushunchasi qanchalik kengaysa, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar samarali ishlaydi. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, chek qo'yish, unga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, javobgarlikning

muqarrarligi prinsipini ta'minlash kabi vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda aytish mumkin, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabati shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish zaruratiga aylanishi kerak. Chunki huquqiy ongi va madaniyati yuksak bo'lgan, huquqiy ta'lim-tarbiya jihatidan yetuk insonlar ushbu salbiy illatga yo'l qo'ymaydi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashishda barcha idora va tashkilotlarda muntazam ravishda targ'ibot



tadbirlari olib borilmogda. Xususan, Toshkent shahar soliq boshqarmasi Shaxsiy xavfsizlik bo'limi xodimlari poytaxtimizdagi gavjum savdo majmualarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan tadbirkorlar bilan targ'ibot tadbirlari o'tkazib, ularga aloqa markazlari va ishonch telefonlari bo'yicha tushunchalar berib kelmogda. Buning uchun alohida aloqa tarmog'ini (78)-140-32-56, (71) 244-98-60 telefon raqamlar ajratilgan. Fuqarolar soliq xizmati organlari tizimida korrupsiya holatlariga duch kelsa, ushbu raqamlarga murojaat qilishi mumkin. Kelajagimiz, taraqqiyotimiz, munosib turmushimiz yo'lga g'ov bo'ladigan har qanday to'siqqa birgalikda, hamkorlikda yechim topiladi.

IIV akademiyasi tashkil etilganining 30 yilligiga

Mamlakatimiz huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalari, shu jumladan, ichki ishlar organlarini yetuk malakali kadrlar bilan ta'minlashda Ichki ishlar vazirligi akademiyasining munosib o'rni bor.

O'quv dargohi o'zining o'ttiz yillik faoliyati davomida sharaflari yo'lni bosib o'tdi va ixtisoslashgan tayanch muassasalardan biriga aylandi. Binobarin, o'tgan yillar mobaynida maskanda 20 mingga yaqin mutaxassis, 12 mingga yaqin serjant tarkibi xodimlari, 1000 nafardan ortiq rahbar kadrlar tayyorlandi.



YANGI AVLOD ICHKI ISHLAR ORGANI XODIMLARI yangicha an'ana va ilg'or yondashuvlar asosida tayyorlanmoqda



Rustam HOTAMOV,
IIV akademiyasi boshlig'i,
polkovnik, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

ishtirokida o'tkazilayotgan muloqot uchrashuvlari, "Kichik final", "Final" singari kompleks o'quv mashg'ulotlari kursantlarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar yordamida mustahkamlashda poydevor bo'lmoqda.

Hozirda kunduzgi ta'lim bakalavriatida "huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati", "tezkor qidiruv faoliyati", "ekspert-kriminalistika faoliyati", "jazoni ijro etish faoliyati", "xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash", "tashkiliy-shtab faoliyati", "probatsiya faoliyati" ixtisosliklari, shuningdek, tajriba tariqasida "axborot xavfsizligi" yo'nalishida kadrlar tayyorlanmoqda.



Magistraturada dastlab "tashkiliy-taktik boshqaruv" va "tashkiliy-strategik boshqaruv" mutaxassisliklari, joriy yildan boshlab esa "ilmiy-pedagogik faoliyat" ixtisosligi bo'yicha kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Ilmiy salohiyat 70 foizga yetkazildi

Akademiyada ilmiy salohiyat ko'rsatkichlarini oshirishning strategik yo'nalishlari belgilab olingan. Bu borada 2022-2026-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot dasturi ham qabul qilingan.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim fakultetida tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilik yo'nalishlari faoliyat yuritmoqda. Dissertatsiya mavzularini shakllantirishda hududiy ichki ishlar organlari faoliyatidagi muammolarni tadqiq qilish va ularning natijalarini amaliyotga keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, tadqiqot mavzularining dolzarbligi va amaliyot uchun ahamiyatini baholash maqsadida Ekspertlar kengashi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Yosh izlanuvchilar uchun ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'yicha qisqa muddatli kurslar hamda ilmiy stajirovka tizimi joriy qilingan. Akademiyada axborot-resurs markazida dissertatsiya, avtoreferat, monografiyalar, bitiruv malakaviy ishlari, ilmiy maqola va tezislarning elektron bazasi yaratilib, tadqiqotchilar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarni differensial rag'batlantirishning yangi mexanizmi, ya'ni ilmiy faoliyat reytingi joriy qilingan. "Eng yaxshi dotsent", "Eng yaxshi professor", "Eng yaxshi olim", "Eng yaxshi ilmiy to'garak rahbari", "Eng yaxshi ilmiy tadqiqot", "Eng yaxshi monografiya", "Eng yaxshi o'quv nashri", "Eng yaxshi ilmiy maqola" nominatsiyalari bo'yicha turli tanlovlar o'tkazib kelinmoqda.

Hozirda akademiya huzurida ilmiy darajalar beruvchi 2 ta ixtisoslashgan kengash samarali faoliyat ko'rsatmoqda. So'nggi uch yilda ixtisoslashgan kengashlarda 50 dan ziyod dissertatsiyalar muvaffaqiyatli himoya qilindi. Professor-o'qituvchilar tomonidan 93 ta darslik, 245 ta o'quv qo'llanma, 37 ta monografiya, 31 ta konferensiya materiallari to'plami va boshqa nashrlar chop etirildi.

Muhimi, mazkur yo'nalishdagi ishlohotlar natijasida ilmiy salohiyat ko'rsatkichlari yildan yilga yaxshilanib bormoqda.

Jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha hududlar tajribasi yaratilmoqda

Huquqbuzarliklar sabab va shart-sharoitlarini o'rganish akademiyasi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sanaladi. O'tgan qisqa vaqt ichida tajribali professor-o'qituvchilar tomonidan har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda 70 dan ortiq metodik qo'llanmalar yaratilib, amaliyotga joriy qilindi.

Singapur va boshqa davlatlarning eng ilg'or ta'lim muassasalari bilan manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Darvoqe, mazkur yo'nalishdagi ishlohotlar haqida o'xtaliganda, akademiya huzuridagi O'quv-metodik kengash faoliyatini ham aytib o'tish joiz. Yetakchi xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining yuqori malakali mutaxassislaridan iborat mazkur kengashni tashkil etishdan maqsad ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng qo'llashdan iborat.

Yoshlar — ishlohotlar tayanchi

Akademiyada yoshlar bilan manzilli ishlohotlar ta'sirchan mexanizmlari hayotga tatbiq qilingan. Kursantlarning faol hayotiy pozitsiyasini mustahkamlash, Vatan taqdiriga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish maqsadida haftaning juma kuni "Vatanparvarlik kuni" sifatida belgilangan.

Tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuk ajdodlarimiz va jasur zamondoshlarimizning ibratli hayotini keng targ'ib etish orqali yoshlarni o'z burchiga sadoqatli, mard, halol va fidoyi

"Smart reyting" — ta'lim sifatini oshirmoqda

Ishlohotlar davrida ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida yangicha mezonlar tatbiq qilindi. Professor-o'qituvchilar faoliyatini baholashning "Smart reyting" elektron tizimi joriy etildi.

Soha vakillarining pedagogik mahorati va malakasini muntazam ravishda oshirib borishga qaratilgan ulkuziksiz tizim yo'lga qo'yildi. Ixtisoslashgan kafedralar professor-o'qituvchilarining sohasiy xizmatlarida amaliyot o'tashi belgilandi. Ta'lim sifati nazorat va monitoring qilish markazini tashkil etish orqali o'quv jarayoni samaradorligi oshirildi.

Bundan tashqari, professor-o'qituvchilar uchun zamon talablariga mos sharoit yaratish, ularning mehnatini munosib rag'batlantirish, moddiy ta'minotini yaxshilash masalalariga



shaxslar etib tarbiyalash maqsadida "Turon qoploni Jaloliddin Manguberdi", "Buyuk Sohibqiron Amir Temur" xonalari, shuningdek, "Vatanparvarlik", "Korupsiyaga qarshi kurashish" burchaklari tashkil qilingan.

Iqtidorli kursantlar kengashi tashkil etilib, bilimlari, tashabbuskor va fidoyi yoshlar bilan maqsadli ishlash, ular o'z tengdoshlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan tizim yaratilgan.

Prezidentimizning besh muhim tashabbusi asosida yangi to'garaklar, shuningdek, kursant qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularga kasb-hunar o'rgatish bo'yicha o'quv kurslari muntazam faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, iqtidorli yoshlarni munosib rag'batlantirish maqsadida Ichki ishlar vazirligining "Jaloliddin Manguberdi" nomidagi stipendiyasi, shuningdek, "Iqtidorli kursant", "Akademiya a'lochisi" ko'krak nishonlari hamda "Cho'ipon" stipendiyasi ta'sis etilgan.

Keyingi yillarda mazkur yo'nalishdagi ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida yangi tizim yaratildi. Unga ko'ra, tajribali professor-o'qituvchilar va iqtidorli kursantlardan iborat tashabbuskor guruhlar tashkil qilinib, "Yangi O'zbekistonni yoshlar bilan birga quramiz!" g'oyasi ostida poytaxtimizdagi mahallalar, ta'lim muassasalari va turli tashkilotlarda huquqiy targ'ibot tadbirlarini o'tkazish yo'lga qo'yildi.

"Tengdosh — tengdoshga" tamoyili asosida yurtingizning turli joylarida istiqomat qilayotgan yoshlarni bilim va kasb-hunar egallashga yo'naltirish, ular qalbida yurtga daxldorlik, qonunlarga hurmat, huquqbuzarliklarga murosasizlik hissinin shakllantirish maqsadida kursantlarning o'zlarini tug'ilib o'sgan hududdagi qishloq va mahallalar, o'rtta ta'lim maktablari hamda oliy ta'lim muassasalarida yoshlar bilan motivatsion uchrashuvlar tashkil etish yo'lga qo'yildi.

alohida e'tibor qaratildi. Samarali ilmiy-pedagogik faoliyati bilan akademiya ravnaqiga munosib hissa qo'shayotgan professor-o'qituvchilar uchun "Murabbiy", "Tajribali murabbiy" va "Faxriy murabbiy" pedagogik toifalari, shuningdek, "Ichki ishlar vazirligi akademiyasi faxriy professori" unvoni ta'sis etildi. Albatta, bu yo'ldagi ishlohotlar ta'lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda akademiyaning moddiy-texnik bazasi tubdan takomillashtirildi. O'quv binolari kapital ta'mirdan chiqarilib, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi. Kriminalistik laboratoriyalar tashkil qilingani munosabati bilan xatshunoslik va hujjatlar texnik-kriminalistik ekspertizasini o'tkazishga mo'ljallangan maxsus vositalar olib kelindi. Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligining ko'magi bilan Xorijiy tillar markazi qoshida "Turk tili xonasi" barpo etildi.

Shu bilan birga, o'quv dargohi hududida yana bir yirik loyiha — Xitoy Xalq Respublikasi hukumati keng "araz ko'magi bilan barpo etilayotgan Innovatsion ta'lim fondining qurilish ishlari boshlab yuborildi.

Bir so'z bilan aytganda, ta'lim jarayoniga tatbiq qilinayotgan yangilanishlar soha uchun intellektual salohiyat va professional bilim darajasi yuqori, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk, Vatanimiz va xalqimiz taqdiriga yuksak daxldor kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Ichki ishlar organlari uchun professional kadrlar tayyorlash bo'yicha samarali tizim yaratilayotgani, sohada o'z burchi va qasamyodiga sodiq, vatanparvar va xalqparvar xodimlar soni ko'payib borayotgani ishlohotlarimizning eng muhim natijasi sifatida qabul qilamiz", deb alohida ta'kidlagan edi.

Zero, Vatanimizning ertangi istiqboli o'z kasbiga va xizmat burchiga sadoqatli, yurt tinchligi, xalq manfaati uchun xizmat qilishni muqaddas burchi deb biladigan bilimlari, mard va jasur yoshlar g'ayrat-shijoatiga, ulkan maqsadlar sari intilishiga bog'liq.



2002-yil 31-avgust. Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi o'z eshiklarini ochdi. Muzei zamonaviy usulda barpo etilib, eng yangi texnika vositalari bilan jihozlandi. Istiqlol yo'lida shahid ketgan ajdodlar haqidagi tarixiy haqiqatni aks ettirish, xotirasini abadiylashtirish kabi vazifalar majmua ekspozitsiyalarining muhim yo'nalishi sifatida belgilandi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

31-AVGUST — QATAG'ON QURBONLARINI YOD ETISH KUNI

...Katta salohiyatga ega yetakchilar, olimlar, adiblar, shifokorlar, o'qituvchilar qatag'on qilingan. Ular xalqimizning eng sara vakillari edi. Mustabid tuzumga millat ko'zini ochadigan, unga o'zligini tanitadigan ziyoli insonlar kerak emas edi. Ularning aybi — buyuk bo'lgani.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



TASKIN TOPGAN TAQDIRLAR

YOXUD TARIXNING QORA SAHIFALARINI UNUTISHGA, BUGUNGI SHUKUHLI KUNLARNING QADRIGA YETMASLIKKA HAQQIMIZ YO'Q

Turnalar karvoni eslatar sizni

Qatag'on qurboni bo'lgan millat oydinlarining yorqin xotirasiga bag'ishlanadi

Yangi O'zbekistonning gul quchog'iga Turnalar kelganda eslaymiz sizni. Xotira maydonidan og'ir aylanib Turnalar ketganda eslaymiz sizni.

Yurtda har kun bayram, buyuk yuksalish, Bunda Usmon Nosir, G'ulom Zafariy. Bog'lar gulga kirdi Behbudiy hazrat, Munavvar tong muborak, Munavvarqori.

Ijod maktabida sizga she'r ayta Sizing izingizdan gavhar terganlar. Sizga armon bo'lgan maktab ochildi, Maktab ochaman deb jonin berganlar.

Jaholat zanjirin tishlab otgan chog', Tishingiz qayerga to'kildi, pirim. Abdulla Avloniy nomingiz aysam Zirqirab og'riydi tomir — tomir.

Maktab ochaman deb och o'tganlarim, Olov yutganlarim, cho'g' yutganlarim. Gazet ochaman deb qon qusganlarim, Ulug' o'tganlarim, qutlug' o'tganlarim.

Yurtim teatrlari bugun koshona, Quchog'ida gullar san'at, muhabbat. Sahna gulga to'ldi, sizni chorlaydi, Pardalarni oching, Behbudiy hazrat.

Qodiriy tug'ilgan Toshkent azim, Qaldirg'och in qurgan oshyonlariga. Oqshomlar yulduzlar qiladi ta'zim, Millatga shon bergan xonadonlarga

Usmon Nosir sovuq Kemerovada She'r yozdi. Daryolar muzladi qat-qat. Ma'rifat yo'llarini har bir qarichin. Salla bilan artgan Is'hoqxon ibrat.

Fayzulla Xo'jayev, Po'lat Soliyev, G'ozli Olimdorsiz, Sanjar Siddiqsiz. Anqaboy Xudoybaxt, Otajon Hoshim, Xalqiga sodiqsiz, Haqqa sodiqsiz.

Abdulhay Tojiyev, Qurbon Beregin, A'zam Ayyublarining izaridirmiz. Biz ham xalqim deya oyoqqa qalqan, Julqunboyning o'g'il-qizlaridirmiz.

Yangi O'zbekistonning yangi bog'ida, Ilm ila irfoni eslatar sizni. Borsa qaytmaslardan vatanga qaytgan, Turnalar karvoni eslatar sizni.

Asrlar o'tajak, yillar o'tajak, Ma'rifat dostoni eslatar sizni. Nomingiz takrorlab gul fasllarda, Shahidlar xiyoboni eslatar sizni.

Zulfiya MO'MINOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

2000-yil 12-may. Xalqimizning vatan ozodligi va erkinligi yo'lida qurbon bo'lgan suyukli farzandlari nomini tiklash, ularning hayoti va faoliyatini o'rganish, tadqiq va targ'ib etish, bir so'z bilan aytganda, tarixiy haqiqatni qaror toptirish maqsadida poytaxtimizning Yunusobod tumanida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui ochildi.

2001-yil 1-may. Shu kuni Prezidentning "Qatag'on qurbonlari yod etish kunini belgilash to'g'risida"gi farmoni imzolandi. Hujjatda "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui bag'ida Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi barpo etilishi, u istiqol g'oyalarga asoslangan ma'naviyat va ma'rifat maskanlaridan biri bo'lishi lozimligi qayd etildi.

2002-yil 31-avgust. Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi o'z eshiklarini ochdi. Muzei zamonaviy usulda barpo etilib, eng yangi texnika vositalari bilan jihozlandi. Istiqol yo'lida shahid ketgan ajdodlar haqidagi tarixiy haqiqatni aks ettirish, xotirasini abadiylashtirish kabi vazifalar majmua ekspozitsiyalarining muhim yo'nalishi sifatida belgilandi.

2017-yil 31-avgust. Qatag'on qurbonlari yod etish kuni munosabati bilan Prezidentimiz muzeyga tashrif buyurdi. Davlatimiz rahbari bildirgan taklif va tashabbuslariga ko'ra, hech qancha vaqt o'tmay, 2017-yil 22-noyabr kuni hukumat qarori qabul qilindi va muzey Vazirlar Mahkamasi tasarrufiga o'tkazildi. Natijada faoliyati yanada kengaydi, takomillashdi. Qayta ta'mirlash va kengaytirish ishlaridan so'ng muzey binosi ekspozitsiya zallarining maydoni 960 kvadrat metr, ayvon qismi 640 kvadrat metrga tashkil etildi.

"Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui va Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining aynan Toshkent shahridagi B2-zsuv sohida barpo etilgani bejiz emas edi. Ayni shu qarovsiz joyda zulm va zo'ravonlikka asoslangan shafqatsiz sho'rolar tuzumi davrida xalqimizning qanchalab asl farzandlari otilgan, bekafan, bejanoza ko'mib yuborilgan. Manzil bugun qatag'on qurbonlari xotiraydigan muqaddas qadamjoga, ozod vatanda tug'ilib, kamolga yetayotgan yoshlarning ziyoratgohiga aylandi.

Muzey ekspozitsiyalarning g'oyaviy maqsadi yurtidoshlarimiz qalbi va ongida vatanparvarlik, o'z xalqiga muhabbat va sadoqat hissini uyg'otishga qaratilgan. Ayni vaqtda yoshlarimizni bugungi dorilamon kunlar qadriga yetishiga, qatag'on qurbonlari xotirasiga yuksak hurmat va ehtirom ila munosabatda bo'lishga undash ham nazarda tutilgan, — deydi muzey bosh ilmiy xodimi Bahrom Irazhev. — Mustabid tuzum yillarida qatag'onga uchragan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ibratli



hayoti va faoliyati, ilmiy ijodiy merosini chuqur o'rganish bugunimiz uchun juda muhim. Negaki shu orqali yoshlarimiz qalbidagi ajdodlarimiz ruhiga ehtirom, ijtimoiy adolat tantanasiga ishonch, istiqol g'oyalarga sadoqat, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ulari uyg'onadi. Lo'nda aytganda, elim-yurtim deydigan komil shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Keyingi yillarda milliy qadriyatlarimizni tiklash, tarixni xolis va haqqoniy o'rganish borasida katta qadam tashlandi. Natijada aziz siymolar xotirasini e'zozlash, xalqimizning boy ma'naviy merosini tadqiq, targ'ib va tashviq qilishga katta imkoniyat paydo bo'ldi. Shu ishlar doirasida qatag'on qurbonlarining ayanchli qismati, ularga va oilalariga qilingan shafqatsiz zo'ravonliklarga adolati baho berish, tarixiy haqiqatni qaror toptirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

2020-yil 8-oktabr. Prezidentimizning "Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi tarixiy adolatning



tiklanishi va shahidlar xotirasi abadiylashtirilishi borasida qilingan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tardi. Farmoyish asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida jami 14 ta "Qatag'on qurbonlari" xotira kitobi tayyorlandi. Endi ular poytaxtimizdagi "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasida barpo etiladigan ramziy xotira kitobiga kiritildi. Shuningdek, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining ekspozitsiyasi "Yangi O'zbekiston: Uchinchi Renessans asoslari" konsepsiyasi asosida tubdan yangilandi.

Bugungi kunda muzey fondida 17 mingga yaqin eksponat mavjud. Fondga saqlanayotgan hujjatlardan ilmiy tadqiqotlar olib boruvchi mutaxassislar umumiy foydalanmoqda. Shuningdek, qatag'onga uchragan o'z yaqinlari to'g'risida ma'lumot so'rab murojaat qilgan fuqarolarga tegishli javob qaytarishda ham mazkur hujjatlarning ahamiyati katta bo'lyapti. — deydi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori Baxtiyor Hasanov. — O'zining 20 yillik faoliyati davomida muzey qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish, ilmiy-ijodiy merosini chuqur o'rganish, yoshlarda istiqol g'oyalarga sadoqat, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg'ularini kuchaytirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirib kelmoqda.

2023-yil 6-7-mart. Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, Turkiya davlatlar tashkiloti, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda boshqa

tashkilot hamda muassasalar hamkorligida Toshkentda "Jadidlarning ma'rifiy faoliyati: g'oyalari, maqsadlari, vazifalari va Turkiston taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi" mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Anjuman O'zbekistonning Turkiya davlatlar tashkilotidagi (TDT) raisligi doirasida o'tkazilayotgani uning nufuzini yanada oshirdi. Unda AQSH, Turkiya, Ozarbayjon, Rossiya, Qozog'iston, Shvetsiya va Germaniya kabi mamlakatlarning 30 ga yaqin nufuzli jaddidshunos olimlari ishtirok etdi.

Prezidentimiz xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik yo'llab, unda tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo'lgan mintaqamizda Uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishi mumkin bo'lgani, ammo mustabid tuzum ularning ezgu g'oya va amaliy harakatlarini to'la ro'yubga chiqarishga imkon bermaganini qayd etdi. Bugun mamlakatimizdagi islohotlar sabab Uchinchi Renessans poydevori qo'yilmoqda. Maqsad — nafaqat mamlakatni yuksaltirish, balki ajdodlarimiz kabi dunyo ahlini ilmga, ma'rifatga chorlash. Buni jadidlar merosini o'rganish, qatag'on qurbonlari xotirasini tiklash borasidagi ishlarda ham ko'rish mumkin.

2023-yil 31-avgust. Prezidentimiz ishtirokida Toshkentdagi "Shahidlar xotirasi" xiyobonida qatag'on qurbonlari yod etish marosimi bo'lib o'tdi. Qur'on tilovat etilib, o'tganlar haqiga duo qilindi. Elga osh tortildi.

"Har safar bu yerga kelib, xalqimiz ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan jasur bobolarimizni eslab, ko'nglimiz taskin topadi. Ularni xotirlash, ezgu ishlarini davom ettirish biz uchun ham qarz, ham farz. Qatag'on qilingan yetakchilarimizning taqdiri barchamizni mustaqilligimizni qadrlashga, uni asrab-avaylashga undaydi. Mana shunday mustaqillikda, tinchlikda yashashning o'zi Alloh taolaning katta marhamati, ne'mati. Buning uchun shukronalik bilan uning qadriga yetish kerak", dedi davlatimiz rahbari.

Tarixiy manbalarga ko'ra, 1937-1953-yillarda O'zbekistonda 100 ming odam qatag'onga uchragan, ularning 13 ming nafari otib tashlangan. O'tgan asrning 80-yillarida ham yurtidoshlarimiz adolatsizlik qurboniga aylanib, "paxta ishi", "o'zbek ishi" degan soxta ayblovlar bilan respublika bo'yicha 40 ming kishi tergov qilingan, 5 ming nafari jinoyi javobgarlikka tortilgan.

Shu kuni Prezidentimiz jadidlar hayotini o'rganish, nohaq qatag'onga uchragan insonlar xotirasini abadiylashtirish bo'yicha xayriya sa'y-harakatlar haqida bunday dedi: "Bu borada adolatni tiklash bo'yicha ko'p ishlar qilyapmiz. Tarixchi olimlar ishtirokida komissiyalar tuzildi, arxiv hujjatlari o'rganilyapti. Oxirgi ikki yilda O'zbekiston Oliy sudi 850 dan ziyod, bu yil 240 nafar ana shunday jabrdiyda vatandoshimizning nomini oqladi. Bunday izlanishlarni hech qachon to'xtatmasligimiz kerak. Negaki haqiqatni xalqimiz bilishi kerak".

Xalqimizning dilini kunday ravshan qilayotgan bunday xayriyalar davom ettirilib, 2023-yil 3-dekabr kuni yana 174 nafar, 2024-yil 6-may sanasida 205 nafar qatag'on qurboni O'zbekiston Oliy sudi tomonidan oqlandi.

— Bu, avvalo, mustabid sho'rolar tuzumi davrida qatag'on qilingan vatandoshlarimizning pok nomini oqlash, xotiralarini abadiylashtirish yo'lida keng qamrovli ishlar qilinayotganidan dalolat beradi. Shuningdek, ayni yo'nalishdagi ishlarimizning tizimli va bardavom ekanini amalda tasdiqlaydi. — deydi Oliy sud raisi o'rinbosari Ikrom Muslimov. — Xalqimizning milliy o'zlikni anglash, yangi O'zbekistonda bunyod etish yo'lida qo'yayotgan qutlug' qadamlari mukarram inson zotiga hurmat-ehtirom ko'rsatish, inson xotirasiga nisbatan adolat va haqiqatni qaror toptirishdek ezgu amallar bilan uzviy bog'liq bo'lib, kelgusida xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi.

2024-yil 19-iyul. Shu kuni davlatimiz rahbari "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtidoshlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarini kengaytirish to'g'risida"gi qarorga imzo chekdi.

Hujjatda qayd etilishicha, 2021-2024-yillarda O'zbekiston Oliy sudi 1200 dan ortiq siyosiy qatag'on qurbonini oqlagan. Endi bu ishlar yanada tizimli ravishda davom ettiriladi. Shu maqsadda siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan vatandoshlarimizning hayoti va faoliyatini o'rganish, xotirasini abadiylashtirish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi.

Qaror bilan komissiyaning asosiy vazifalari belgilanib, uning ishchi organi etib Mudofaa vazirligining umumiy rahbarligi ostida — Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat



muzeyi, FA Tarix instituti, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi, Qurolli Kuchlar akademiyasi, Mudofaa va harbiy xavfsizlik muammolarini o'rganish instituti, "G'alaba bog'i" memorial majmuasi, "Shon-sharaf" davlat muzeyining mas'ul shaxslari va yetakchi mutaxassislari guruhi tayinlandi.

Shuningdek, har yili oktabr oyida Siyosiy qatag'on qurbonlari xotirasi haftaligini o'tkazish belgilandi. Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan vatandoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, xotirasini abadiylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

— O'sha yillar qatag'oni, avvalo, ziyolilar, din xizmatchilariga qarshi qaratilgan edi, — deydi Andijon davlat universiteti tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi rahbari, professor, tarix fanlari doktori Rustambek Shamsutdinov. — Faqat 1937-yilning dekabr oyida "uchlik" qarori bilan hukm qilingan 3644 kishidan 1464 nafari imom, eshon, mulla va boshqa diniy xizmatchi bo'lgan. 1938-yilning fevralida "uchlik" yig'ilishlarida 2491 mahbus ustidan hukm chiqarilgan. Ular, asosan, o'ziga to'q dehqonlar, ishchi-xizmatchilar, ulamolar, savdogarlar edi.

Bugun yurtimizda tinchlik va osoyishtalik barobarida inson xotirasiga va qadringin shunday yuksak darajada ulug'lanayotgani farzandlarimiz uchun tengsiz saboq va munosib ibratdir. Bularning barchasi yangi O'zbekiston keyingi yillarda tom ma'noda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini ulug'lanadigan buyuk davlatga aylanganidan yana bir dalolatdir.

Ma'rifatarpar bobolarimiz mustaqillik, xalqimiz erkin-yashash uchun kurashganini bilim. Ularning nomlarini tiklash, muzeylarni yangi namunalardan bilan to'ldirish, ijod maktablari tashkil etish bo'yicha ko'p ishlar qilyapmiz. Maqsad odamlarga tarixiy adolatni, haqiqatni ochiqlash, xalqimiz u kunlarni hech qachon unutmazligi, bugungi kunlarning qadriga ko'proq yetishi uchun zamin hozirlashdir.

Nodir MAHMUDOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2984.
41126 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhib: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy